



**15-16 APREL  
2022**

**TOSHKENT  
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR  
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI**

**“TADQIQOT.UZ”  
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:  
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH  
ISTIQBOLLARI**

**II  
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA  
MATERIALLARI**

**TO‘PLAMI**

**Toshkent - 2023**

**Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:**  
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

**Tahrir kengashi:**

g.f.d., professor Hikmatov F.H.  
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.  
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

**Kengash a'zolari:**

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.  
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.  
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.  
PhD, dotsent Prenov Sh.M.  
PhD, dotsent Raxmonov D.N.  
PhD, dotsent Raxmonov K.R.  
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

**Mas'ul muharrir:**

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz



## TOSHKENT VILOYATI MEHNAT RESURSLARINING SHAKLLANISHI

**Egamberdiyeva U.T.**

dotsent

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

e-mail: umri\_1960@mail.ru

**Toshboyeva F.Q.**

magistrant

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada mehnat resurslarining shakllanishini tahlil qilish orqali mehnat resurslarini shakllantiruvchi asosiy kuch tabiiy o‘rish (tug‘ilish va o‘lim) ko‘rsatkichlari yillararo tahlil qilib o‘tilgan. Viloyat mehnat resurslari mehnat resurslarini shakllanish turlarining qay biriga o‘xshashligiga ham e‘tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** mehnat resurslarining shakllanishi, demografik jarayonlar, mehnat resurslarining tor, oddiy va kengaytirilgan shakllari, tug‘ilish, o‘lim, tabiiy o‘rish.

## FORMATION OF LABOR RESOURCES OF TASHKENT REGION

**Egamberdiyeva U.**

**Toshboyeva F.**

**Annotation:** This article provides an annual analysis of the indicators of natural growth (births and deaths), the main force that forms the labor force, by analyzing the formation of labor resources. attention is also paid to what types of labor resources formation the regional labor resources are similar to.

**Keywords:** formation of labor resources, demographic processes, narrow, simple and expanded forms of labor resources, births, deaths, natural growth.

“Mehnat resurslarining shakllanishi” tushunchasi ancha vaqtlardan buyon iqtisodiy adabiyotlarda va statistik amaliyotda qaror topgan bo‘lib, o‘ziga xos tor kasbiy atama sifatida ishlatilib kelinadi. “Mehnat resurslarining shakllanishi” deganda, mehnat resurslarining doimiy ravishda yangilanib turishi tushuniladi. Darhaqiqat, “shakllanish” so‘ziga qaraganda “takror ishlab chiqarish” atamasini qo‘llashimiz maqsadga muvofiq.

Mehnat resurslarining shakllanishi demografik jarayonlar: aholining tug‘ilish va o‘lim darajasi, jinsiy tarkibi, nikoh va ajralishlar soni, oiladagi bolalar soni va uning o‘zgarishi kabilar bilan bevosita bog‘liqdir.



Mehnat resurslarini shakllanishida asos tug'ilish darajasi bo'lib, mehnat resurslarida bu ko'rsatkich 14-15 yildan so'ng o'z ifodasini topadi.

Mehnat resurslarini shakllantirishning ikki usuli mavjud:

1. Mehnat resurslarini shakllantirishning ekstensiv usuli. Ushbu turga aholi tarkibida o'lim darajasining yuqoriligi, yoshlar ulushining kattaligi va qariyalar sonining kamligi, aholining tabiiy o'sish darajasining pastligi xosdir. Mehnat resurslari tarkibining ekstensiv turi iqtisodiy faol aholining sifat darajasi o'zgarmagan holda mehnat resurslari miqdorining ko'payishini anglatadi.

2. Mehnat resurslarini shakllantirishning intensiv usuli. Intensiv ya'ni zamonaviy turga odamlar turmush darajasi va turmush sifatining ortishi, ilm-fan yutuqlari bois umr ko'rish davomiyligi hamda katta yoshdagilar salmog'ining ortishi xosdir. Shuningdek, bu turda aholi tarkibidagi miqdor saqlangan holda, sifat o'zgarishlari: malaka darajasi, jismoniy va aqliy salohiyatining, mehnat qobiliyati va unumdorligining ortishi bilan ifodalanadi.

Mehnat resurslarini qanday shakllanishini aniqlash uchun quyidagi amallarni bajarish zarur:

*Birinchi*dan, mehnat resurslarini uchta yirik yosh guruhlariga – mehnatga layoqatli kishilar, mehnatga layoqatli kishilardan yoshroq hamda mehnatga layoqatli kishilardan kattaroq bo'lgan kishilar guruhlariga ajratish;

*Ikkinchi*dan, har bir guruh aholi soniga, uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rib o'tish;


*Uchinchi*dan, mehnat resurslari va aholining tabiiy va mexanik o'zgarishidagi umumiy va o'ziga xos tomonlarini ko'rib chiqishimiz lozim.

Mehnat resurslarining aksariyat ko'pchilik qismini mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga qobiliyatli aholi tashkil etadi. Mehnat qilishga layoqatli yoshdan katta (ishlovchi pensionerlar va amalda "nol" vazifasini bajaruvchi shaxslar) hamda mehnatga layoqatli yoshdan kichik kishi (ishlovchi o'smirlar)lar mehnat resurslarining salmog'ida u darajada sezilarli rol o'ynamaydi.

Mehnatga layoqatli yoshdagi fuqarolar butun aholining bir qismi bo'lib, ularning soni demografik omil ta'sirida o'zgarib turadi. Ularning qancha bo'lishi tegishli yoshlardagi o'lim darajasiga, shuningdek, mehnat qilish yoshiga yetgan yoshlar bilan nafaqa yoshiga yetgan fuqarolar soni o'rtasidagi nisbatga ham bog'liq. O'lim qanchalik kam bo'lsa va mehnat qilish yoshiga yetgan fuqarolar, bu yoshdan chiqqan kishilar o'rtasidagi farq qanchalik yuqori bo'lsa, mehnat qilish qobiliyatiga yetgan kishilar soni shunchalik ko'p bo'ladi yoki aksincha.

Mehnat resurslari soni (dinamikasi)ning o'zgarishi bilan butun aholi sonining o'zgarishi o'rtasida tabiiyki, bog'liqlik bor. Biroq, u birinchi qarashda unchalik ko'zga tashlanmaydi. Mehnat resurslarining soni hamisha butun aholi soni kabi o'zgaravermaydi {1}.

Demak, mehnat resurslarining shakllanishi har bir davlatdagi demografik holatga bog‘liq. Inson tug‘ilishi va vafot etishi natijasida aholi soni va tarkibi muntazam yangilanib va o‘zgarib turadi. Ana shu omillarni asos qilgan holda, aholi shakllanishini uch turiga ajratish mumkin (1-rasm).



**1-rasm. Aholi shakllanishining turlari**

Bundan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasi hamda uning ma‘muriy birliklarining barchasi aholining kengaytirilgan shakliga xosdir. Buni quyida keltirilgan 1-jadval ma‘lumotlaridan ham ko‘rishimiz mumkin.

**1-jadval**

**Toshkent viloyatida tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari  
(1000 aholiga nisbatan, promille)**

Toshkent viloyatida tug‘ilish koeffitsiyenti							
Hududlar	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
<b>O‘zbekiston Respublikasi</b>	<b>23.3</b>	<b>23.5</b>	<b>22.8</b>	<b>22.1</b>	<b>23.3</b>	<b>24.3</b>	<b>24.6</b>
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>21.1</b>	<b>21.1</b>	<b>20.3</b>	<b>19.3</b>	<b>20.6</b>	<b>21.9</b>	<b>22.3</b>
<i>shaharlar</i>							
Nurafshon sh.	-	-	-	14.2	14.3	18.7	17.9
Olmaliq sh.	21.9	21.7	20.4	19.1	19.4	22.2	22.8
Angren sh.	21.0	21.4	19.7	18.9	19.0	19.4	21.2
Bekobod sh.	20.1	18.6	17.6	17.7	17.5	20.6	19.9
Chirchiq sh.	15.7	15.4	14.6	14.0	15.1	16.0	17.1
Ohangaron sh.	-	-	-	16.2	17.8	18.6	18.9
Yangiyo‘l sh.	-	-	-	17.0	17.3	19.3	23.5
<i>tumanlar</i>							
Oqqo‘rg‘on	24.0	23.2	21.6	21.4	23.2	24.3	24.7
Ohangaron	22.2	22.0	21.4	21.3	22.0	23.1	22.7
Bekobod	23.2	23.6	22.3	21.8	23.2	24.1	23.0
Bo‘stonliq	19.5	19.8	19.6	17.1	18.6	19.4	19.0
Bo‘ka	22.6	22.0	22.7	20.6	23.9	23.8	23.6

Zangiota	20.5	20.1	19.6	19.5	21.4	23.4	23.4
Qibray	19.8	19.5	19.5	18.1	19.3	20.1	21.1
Quyi Chirchiq	22.7	23.4	22.4	20.5	22.1	22.3	22.1
Parkent	23.7	24.2	22.8	21.9	23.7	24.8	26.0
Piskent	18.9	18.7	18.5	19.0	20.0	20.2	21.0
O'rta Chirchiq	21.4	21.1	20.7	21.5	23.1	25.0	25.9
Chinoz	22.6	24.2	22.6	21.7	22.1	24.2	24.0
Yuqori Chirchiq	22.2	23.0	21.9	19.7	21.8	23.5	22.3
Yangiyo'l	20.8	21.3	20.4	19.8	21.4	22.7	22.6
Toshkent	-	-	-	18.3	20.4	22.5	23.0
<b>Toshkent viloyatida o'lim koeffitsiyenti</b>							
	<b>2014</b>	<b>2015</b>	<b>2016</b>	<b>2017</b>	<b>2018</b>	<b>2019</b>	<b>2020</b>
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>4.9</b>	<b>4.9</b>	<b>4.9</b>	<b>5.0</b>	<b>4.7</b>	<b>4.6</b>	<b>5.1</b>
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>5.9</b>	<b>5.9</b>	<b>5.8</b>	<b>5.8</b>	<b>5.7</b>	<b>5.5</b>	<b>6.2</b>
<i>shaharlar</i>							
Nurafshon sh.	-	-	-	5.6	5.7	5.5	5.7
Olmaliq sh.	7.8	8.3	7.6	7.4	7.0	6.8	7.3
Angren sh.	6.0	6.3	6.0	6.1	5.9	5.5	5.9
Bekobod sh.	6.6	6.0	6.4	5.9	5.9	5.8	5.5
Chirchiq sh.	8.2	7.7	7.3	7.7	1.7	7	7.5
Ohangaron sh.	-	-	-	7.1	30.7	7.2	5.7
Yangiyo'l sh.	-	-	-	8.4	8.2	7.6	8.4
<i>tumanlar</i>							
Oqqo'rg'on	5.6	5.2	5.1	5.1	5.5	5.1	5.4
Ohangaron	5.6	6.2	6.0	5.5	5.4	5.2	6.2
Bekobod	5.4	5.1	5.3	5.4	4.8	4.9	5.2
Bo'stonliq	5.4	5.7	5.5	5.3	5.1	5.5	5.6
Bo'ka	4.9	4.8	5.1	5.0	4.9	4.8	4.8
Zangiota	5.1	5.1	5.2	4.9	5.0	4.9	7.2
Qibray	6.2	6.1	5.8	6.0	5.8	5.5	7.1
Quyichirchiq	6.3	6.0	6.5	6.3	6.0	5.7	6.4
Parkent	4.8	4.7	4.6	4.9	4.8	4.4	5.1
Piskent	4.9	5.3	4.9	5.4	5.3	5.2	5.7
O'rtachirchiq	-	-	-	5.8	6.1	5.8	6.9
Chinoz	5.8	5.6	5.5	5.4	5.5	5.3	5.4
Yuqorichirchiq	6.7	6.2	6.0	6.6	6.4	5.9	6.5
Yangiyo'l	5.7	6.0	5.9	5.0	4.9	4.9	5.7
Toshkent	-	-	5.9	5.4	5.3	5.1	7.3

Jadval ma'lumotlaridan shuni anglash mumkinki, o'rganilayotgan hududimizda tabiiy o'sish 2014-yildan 2020-yilgacha doimiy musbat ko'rsatkichda tebranma harakatda bo'lgan. Keltirilgan yillar oralig'ida respublika bo'ylab o'rta hisobda

tug‘ilish 20,9 %, o‘lim 5,8 % ga teng bo‘lib, tabiiy o‘shish 15,1 % ni tashkil etgan (2-jadval).

**2-jadval**

**Toshkent viloyatida tabiiy o‘shish  
(1000 aholiga nisbatan, promille)**

<b>Yillar</b>	<b>Tug‘ilish darajasi</b>	<b>O‘lim darajasi</b>	<b>Tabiiy o‘shish</b>
2014	21.1	5.9	15.2
2015	21.1	5.9	15.2
2016	20.3	5.8	14.5
2017	19.3	5.8	13.5
2018	20.6	5.7	14.9
2019	21.9	5.5	16.4
2020	22.3	6.2	16.1
<b>O‘rtacha ko‘rsatkich</b>	<b>20.9</b>	<b>5.8</b>	<b>15.1</b>

Yuqorida ma’lumotlariga asoslangan holda, Toshkent viloyati aholisi aholi shakllanishining kengaytirilgan shakliga xos deb ta’kidlash mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdurahmonov K.X., Mehnat iqtisodiyoti nazariya va amaliyot, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, T-2019, 75-bet.
2. <https://enc.for.uz>
3. <https://stat.uz/>